

**INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA MAKTABGACHA TA'LIM  
TASHKILOTLARIDA TARBIYACHINING PEDAGOGIK FAOLIYATINI  
TASHKIL QILISH**

M.S.Alimbayeva UrDPI pedagogika fakulteti  
Maktabgacha Ta'lism yo'naliishi talabasi

**Annotatsiya:** Bugungi kunda ta'lism tizimidagi islohotlar zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish davr talabiga aylanmoqda. Innovotsion yondashuvlar asosida maktabgacha talim tarbiyachilarning pedagogik faoliyatini tashkil etish yosh avlodni har tomonlama rivojlanishiga ijobiy tasir ko'rsatadi. Bu maqolada innovatsion yondashuv asosida tarbiyachining faoliyatini tashkil etishning asosiy tamoyillari va samaradorligi haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** bola, innovotsion yondashuv, talim, tarbiya, pedagogik, tarbiyachi, faoliyat, kreativ, metod, o'yin.

Innovatsion yondashuv- bu pedagogik faoliyatda yang texnologiyalar, interaktiv metodlar, kreativ o'yinlar orqali talim samaradorligini oshirishdir.

O'zbekiston Respublikasi maktabcha talim tizimini yanada rivojlantirish maqsadida 2019- yil 8-maydaggi PQ-4312-son "O'zbekiston Respublikasi maktabgachaga talim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish" Konsepsiyasini ishlab chiqildi.Ko'nsepsiya O'zbekiston Respublikasida maktabgacha talimni rivojlantirishning maqsadlari,vazifalari, ustuvor yo'naliislari, o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda maktabgacha talim sohasini

rivojlantirishga yo‘naltirilgan dasturlar va kompleks chora tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi.<sup>1</sup>

Maktabgacha talim tashkilotlarini rivojlantirishda rahbarlar va tarchiyachilarining o‘rni beqiyos. Maktabgacha talim tashkilotida tarbiyachilarining yosh avlodni xalqimizga munosib farzand qilib tarbiyalashi, har tomonlama yetuk shaxs bo‘lib kamolga yetishida o‘z hissalarini qo‘sishadi. Buning uchun albatta tarbiyachi bilimli, kreativ fikrlaydigan, har tomonlama mukammal bo‘lishi kerak. Tarbiyachi bolalar bilan ishlashda har xil o‘yinlar, metodlardan foydalanishi, bolalarni dars mashg‘ulotlariga qiziqtirishi kerak. Tarbiyachi pedagogik mahoratga ega bo‘lishi kerak. Hozirgi kunda yangidan yangi talim tizmi, talim jarayonlarini yurtimiz maktabgacha tashkilotlarida joriy etish va qo‘llab quvvatlash rahbarlar tomonidan etiborga olinmoqda.

Ko‘pchilik olimlarmiz tabiyachining pedagogik mahorati masalasida izlanishlar olib borishgan. K.Ochilov, K.Hoshimov, R.Qodirova, S.Temirova, M.Inomova, N.Ortiqova, Sh.Olimov, U.Mahkamov kabi olimlar o‘z izlanishlarini olib borishgan. Taniqli pedagog bolalarni ona tiliga o‘rgatish uslub va uslubiyatlarini ishlab chiqqan uslibiyatchi,maktabgach tarbiya bo‘yicha mashhur mutaxassis professor Y.I Tixeyeva tarbiyachi nutqiga yuksak baho berib, shunday degan edi:”Bog‘chada bolalar beixtiyor taqlid qilladigan namuna tarbiyachining tilidir, tarbiyachining tili bolalar tiliga g‘oyat samarli va nihoyatda kuchli tasir ko‘rsatadigan hamma narsani o‘zida birlashtiradigan bo‘lishi kerak. Bog‘bonning tili bekam-u ko‘st, adabiy talaffuzning har qanday nuqsonlaridan xoli bo‘lishi lozim”. Bolalar tarbiyachida ko‘rganini qiladi.

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiining “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha talim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash” to‘grisidagi qarori2019, 13-may PQ4312 son

Innovatsion yondashuv asosida maktabgacha talimni rivojlantirish bugungi kun davr talabiga aylanmoqda. Tarbiyachi guruhidagi har bir bolaning ruhiy holatini uning ichki va tashqi dunyosidan habardor bo‘lishi lozim. Tarbiyachi bolalar bilan ishlashda ularga mashg‘otlarni guruh guruh bo‘lib shug‘ullanishi kerak. Sababi guruhda bolalar o‘rtasida ahillikni, jamoa bo‘lib ishlashga o‘rgatadi. Tarbiyachi har bir bolaning kelajakda haqiqiy inson bo‘lishiga yordam beradigan xislatlarini shakillantirishi lozim. Tarbiyachi bolani tushina bilishi uni ichki dunyosiga kira bilishi lozim. Bola bilan jonli munosabat o‘rnatishi ular bilan tez tez yakka tartibda suhbatlar o‘tkazishi kerak.

Tarbiyachi har bir bolaga qobiliyatiga va ehtiyojiga qarab talim berishi kerak. Suhbatlar munozaralar, guruhli ishlash, talimiyl o‘yinlar bolalarning faolligini yanada oshiradi. Tarbiyachi bolalarni maktabgacha tashkilotiga qiziqtira bilishi kerak. Buning ucun asosan, mutimedia materiallar, interaktiv darsliklar, elektron resurslar orqali Bolani qiziqshini oshirish mumkin. Tarbiyachi talim jarayonini oldindan rejalshtirishi lozim.

Tarbiyachi maktabgacha tashkilotida asosiyl shaxs hisoblanadi. Butun tarbiyaviy ishlarning sifati va qolaversa, kelajak avlodni tarbiyalanganlik va bilish darajasi tarbiyachining g‘oyaviy-siyosiy va ilmiy-pedagogik tayyorgarligiga’ javobgarlik hissiga, pedagogik mahoratiga va ishga bo‘lgan ijodiy munosabatiga bog‘liq.

Tarbiyachi bolalarga talim berishni kun davomida amalga oshiradi: ularning bilimlarini boyitadi, xulq atvor madaniyati rivojlantiradi, fiklashi dunyoqarishini shakillantiradi. Tarbiyachi mashg‘ulot darslarini to‘gri taqsimlashi lozim. Maktabgacha talim tashkilotida mashg‘ulot bosh rolni egallaydi. Mashg‘ulotlar tarbiyachi rahbarligida o‘tkaziladi. Mashg‘ulot davomida tarbiyachi bolalar bilan tog‘ri ishlashi ularni guruhlarga ajratib dars mashg‘ulotlarini o‘tishi kerak. Tarbiyachi mashg‘ulot davomida bolalalarni yangi bilimlardan xabardor qiladi, bolalar esa egallab olgan bilimlarini aniqlab mustahkamlaydilar.

Bolalar o‘z fikrini erkin bayon eta olishi, u do‘satlari davrasida o‘zini qanday tutishi hammasi tarbiyachiga bog‘liq. Tarbiyachi bolalar bilan o‘yinlar tashkillashtirishi, ertak, hikoyalar, badiiy asarlar o‘qib berishi lozim. Shunda tarbiyalanuvchilarning nutqi yaxshi rivojlanadi.

## XULOSA

Shuni tavsiya etamanki, pedagog-tarbiyachining doiy izlanishda bo‘lishi kerak. Chet elning rivojlangan davlatlari talim tarbiyasini kuzatishi, o‘rganishi ular bilan bevosita muloqotda bo‘lishi’ tajriba almashishi, bir xillikdan qochish, yangi talim texnologiyalardan mashg‘ulotlar jarayonida foydalanishi ular pedagogik jarayonning samarali tashkil etilishiga xizmat qiladi. Pedagog tarbiyachilar mashg‘ulotga yangicha usul bilan yondashishi kreativ g‘oyalar yaratishi, yangilikka intilishi va bu bilan bolalarning mashg‘ulotlarga qiziqtira bilishi, ularning ongini yangi bilimlar bilan boyitishi, o‘qishga, talim olishga bo‘lgan qiziqshini yanada oshirishi ularning eng katta yutug‘i desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

### Foydalangan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiining “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha talim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash” to‘grisidagi qarori 2019, 13-may PQ4312 son
2. Ahmedjanov M.M, Xo‘jayev B.Q, Hasanova Z.D Pedagogik mahorat – Buxoro davlat universiteti .
3. Avliyakulov N.X.Musayev N.N. Pedagogik texnologiyalar. – T: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti
4. Sayidahmedov N “Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya” – Toshkent “fan va texnologiyalar” -2013 yil